

**BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARNI TARBIVAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Qambarov Mirzobobur Bahodir o'g'li***Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasida mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, ulardan foydalanishning samarali printsiplari aniqlangan hamda bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tuzilmasi berilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik muvaffaqiyatini ta'minlovchi tashkiliy, mazmunli, motivatsion hamda pedagogik qo'llab-quvvatlash yondashuvlar mazmuni yoritilib, Oliy ta'lim muassasida bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir ijtimoiy kompetensiyalar mazmuni tasniflangan. Bundan tashqari talabalarning tarbiyaviy ishlarni to'g'risida pedagogik va psixologik asoslarni ochib borildi, tarbiya jarayonida foydalaniladigan uslub va vosita, shakl va bolalarning uyushmalari ishlarini tashkil etishning eng samarali yo'llari yoritib borildi, hamkorlik pedagogikasi asoslari va uni tarbiya jarayonida amalga qo'llash metodikasi ko'rsatib o'tildi. Maqolada bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarini tayyorlashga zamonaviy, kasbiy kompetentli yondashuv, innovatsion kompetentlilik, pedagogik faoliyat va amaliy-yo'naltirilgan ta'lim asosidagi yondashuvlar keltirilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlardan foydalanib bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari va barkamol avlod etib tarbiyalash muhim manbalarga tayangan holda amalga oshirildi.*

**Kalit so'zlar:** *tayyorgarlik, innovatsiya, texnologiya, ta'lim, bosqich, samara, maxsus, uslubiy, kasb, mazmun, motivatsiya, pedagogik qo'llabquvvatlash, ijtimoiy kompetensiya.*

**Аннотация:** *В статье определены педагогические условия подготовки будущих высокообразованных специалистов к воспитательной деятельности, эффективные принципы их использования, структура подготовки будущих высокообразованных специалистов к воспитательной деятельности. Также выделено содержание организационно-содержательных, мотивационно-педагогических подходов сопровождения, обеспечивающих успешность профессиональной подготовки, и классифицировано содержание социальных компетенций по подготовке будущих высокообразованных специалистов к образовательной деятельности в высших учебных заведениях. Кроме того, были раскрыты педагогико-психологические основы воспитательной работы учащихся, методы и средства, используемые в воспитательном процессе, наиболее эффективные способы организации работы детских объединений, основы кооперативной педагогики и ее практическое применение в учебном процессе. разъяснен учебный процесс, показана методика. В статье представлен современный, профессионально компетентный подход к подготовке будущих учителей, основанный на инновационной компетентности, педагогической деятельности и практикоориентированном образовании. Опираясь на важные источники, проведены педагогико-психологические особенности подготовки будущих высокообразованных специалистов к воспитательной*

деятельности с использованием духовных ценностей в образовательном процессе и воспитании зрелого поколения.

**Ключевые слова:** подготовка, инновация, технология, образование, этап, эффект, специальный, методический, профессия, содержание, мотивация, педагогическое сопровождение, социальная компетентность.

**Annotation:** In the article, the pedagogical conditions of preparing future highly educated specialists for educational activities, the effective principles of their use, and the structure of preparing future highly educated specialists for educational activities are defined. Also, the content of organizational, meaningful, motivational and pedagogical support approaches that ensure the success of professional training is highlighted, and the content of social competences for preparing future highly educated specialists for educational activities in higher education institutions is classified. In addition, the pedagogical and psychological foundations of the educational work of students were revealed, the methods and tools used in the educational process, the most effective ways of organizing the work of children's associations, the basics of cooperative pedagogy and its practical application in the educational process were explained. methodology was shown. The article presents a modern, professionally competent approach to the training of future teachers, based on innovative competence, pedagogical activity and practical-oriented education. Pedagogical-psychological features of preparing future highly educated specialists for educational activities using spiritual values in the educational process and raising a mature generation were carried out relying on important sources.

**Key words:** preparation, innovation, technology, education, stage, effect, special, methodological, profession, content, motivation, pedagogical support, social competence.

## KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma'naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e'tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Ma'lumki, Turon zaminida azal-azaldan inson ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu vazifa bugungi kunda ham dolzarbligicha qolib kelmoqda. Mamlakatimizda malakali oliy ma'lumotli mutaxassis-murabbiy kadrlarini tayyorlash masalasiga ustuvor soha sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>57</sup> gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>58</sup> gi Qarorlarida oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga alohida e'tibor berish zarurligi ta'kidlangan. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.08.2018 yildagi PQ-3907-son Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida

2020-yil 23-sentabrdagi O'RBQ 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"<sup>59</sup> Qonunining alohida bandida pedagog xodimlarning huquq va majburiyatlari bayon etilishi bilan birga, kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilish kerakligi belgilangan. Mazkur qaror va qonunlar ijrosini ta'minlash maqsadida biz pedagogika OTMda tayyorlanayotgan mutaxassislar-bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlarligini takomillashtirishga doir Ilmiy-izlanishlar olib bordik. Bunda asosiy e'tiborni mutaxassisning tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish mazmuni, uni amalga oshirish shakl va metodlariga ajratish bilan bir qatorda, unga yuklatilgan vazifalarini turli xil qadriyatlar tizimlari va dunyoqarashning mavjudligi sharoitida bajara olish malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishiga qaratdik. Bunda malakali mutaxasislarni tayyorlash omillarining biri bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar e'tiborga olinib, uning:

- 1) biror narsa sodir bo'ladigan muhit,
- 2) biror narsa ustida bo'lgan holat bilan bog'liq makon va sharoit;
- 3) muayyan faoliyat sohasiga kiritilgan qoidalar kabi ko'p qirrali ekanligiga ahamiyat qaratildi.

Pedagogik adabiyotlarda ham "pedagogik shart-sharoitlar" tushunchasini turlicha izohlangan bo'lib: pedagogik ta'sir choralari majmui (A.Y.Nain); ta'lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari va shakllari (V.I.Andreyev); muammolarni hal qilishda moddiy-fazoviy muhitning ob'ektiv shakllari, usullari va vositalari to'plami (A.Y.Nain); pedagogik jarayonning chora-tadbirlari majmui (N.M.Yakovleva) deb atalgan. Adabiyotlar tahlili asosida, biz psixologik-pedagogik shart-sharoitlar bu-pedagogik tizimning u yoki bu jihatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv va moddiy-fazoviy muhitning (ta'sir choralari) maqsadli qurilgan o'zaro bog'liq imkoniyatlari to'plami deb ta'riflab, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning quyidagi samarali shart-sharoitlarini aniqladik:

- bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni auditoriya va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda, pedagogik amaliyot mobaynida tarbiyaviy faoliyat uchun zaruriy ijtimoiy kompetensiyalarni o'zlashtirishlari va shu asosida ularda tarbiyaviy faoliyat uchun zaruriy bilim ko'nikma va malakalarni shakllanishini ta'minlovchi didaktik shart-sharoitlar (tarbiyaviy faoliyatning maqsadi, mazmuni, shakllari va metodlari va innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar);

- innovatsion yondashuvga asoslangan ta'lim va tarbiyaviy jarayonni tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlari (ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarishning shakllari, vositalari va usullari);

- bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash va innovatsion yondashuvga asoslangan ta'lim tarbiya jarayonining metodik ta'minotini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan kasbiy metodik shart-sharoitlar.

Mazkur sharoitlardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun esa ushbu quyidagi samarali prinsiplar qo'llanildi:

1. Ijodkorlik prinsipi. Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, talabalarning pozitiv xarakterdagi hayollari va rejalarini rag'batlantirish.


<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi O'RBQ-637-son.



2. Dialoglik prinsipi. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda amalga oshiriladigan dialoglik prinsipi, tolerantlik va refleksiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash.
3. Muvaffaqiyat prinsipi. Mazkur prinsipning mohiyati jamoa bilan ishlashga qaratilgan zaruriy his-tuyg‘ular bilan tavsiflanib, talab va taklifning uyg‘unligini ta‘minlaydi.
4. “O‘zini o‘zi boshqarish” prinsipi. Bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashdagi mustaqil amalga oshirishga qaratilgan hayot sharoitlarida kuch va shaxsiy va faol bo‘lish belgilari.
5. Tabiiylik prinsipi tabiiylik tamoyilining mohiyati odamlarning tabiiy tengligini, har bir shaxsning o‘z qadr-qimmatini va betakrorligini, uning atrof-muhit bilan uzviy birligini tan olishga asoslanadi.
7. Pedagogik jarayonning bilim va ko‘nikmalarni, ong va xulq-atvorni birlikda shakllantirishga yo‘naltirilganligi prinsipi. Ushbu prinsipning mohiyati bolalar amaliy harakatlar bilan tasdiqlangan nazariy taqdimotning to‘g‘riligini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan faoliyatni tashkil yetish talabidan iborat;
8. Tarbiyaning uzluksizligi prinsipi. Bu tamoyil o‘quv jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarni mustahkamlash hamda ularni tizimli va izchil rivojlantirishni nazarda tutadi.
9. Tarbiya jarayonining yaxlitligi va tizimliliigi prinsipi. Tarbiya jarayonini tizimli idrok etish va tushunish, uni yaxlit bir butunlikda amalga oshirishni nazarda tutadi. Yaxlitlik pedagogik jarayonning tabiiy xususiyati bo‘lib, u ob‘ektiv ravishda mavjud, chunki jamiyatda maktab, ta‘lim va tarbiya jarayoni mavjud.
10. Ma‘naviy hamkorlik prinsipi. Birgalikda quvonish; pozitivizm; hamkorlik; individuallik. Tarbiyaviy faoliyatdagi ma‘naviy hamkorlik prinsipi tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlarini integratsiyalashgan holda qo‘llashga asoslanadi.

1-jadval

**Bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxassisning tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tuzilmasi**



Yuqorida keltirilgan prinsiplardan bir butun holda foydalanish samarali natijalar berdi. Tadqiqotda tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning o‘ziga xos xususiyati aniqlanib, aniq tadbirlar va tarbiyaviy ishlarning shakllari (suhbatlar, uchrashuvlar, kechalar, ekskursiyalar va boshq.), talabalar faoliyati (tarbiyaviy tadbirlar, fan to‘garaklari, tanlovlar, olimpiadalar), shuningdek, ko‘rgazmali qurollar (film namoyishlari, rasmlar va boshq.)ni amalga oshirish yuzasidan maqsadli buyurtma hamda kutilayotgan natijani o‘z ichiga oluvchi bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tuzilmasi ishlab chiqildi.

2-jadval



Shuningdek, tadqiqotda bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning tashqi formal va didaktik xususiyatlariga asoslangan tasnifiy parametrlarining didaktik, tashkiliy-boshqaruv va metodik ta‘minoti bilan bog‘liq shart-sharoitlari tahlilida kasbiy tayyorgarlik muvaffaqiyatini ta‘minlovchi quyidagi masalalar e‘tiborga olingan:

tashkiliy: ta‘lim muassasasining o‘quv jarayonida talabalarning faol sub‘ektiv pozitsiyasini rag‘batlantirish; talabalar faoliyatini tashkil qilishda o‘quv jarayonining boshqa sub‘ektlar (oliy ma‘lumotli mutaxassislar, ota-onalar) bilan o‘zaro munosabatlarini amalga oshirish;

mazmunli: kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar faoliyatining har xil turlarini (kognitiv, dizayn-tadqiqot, amaliy ta‘lim) rivojlantirish; o‘quv faoliyatini axborot-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

motivatsion: talabalarning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlash talabalar bilan o‘quv loyihalarini ishlab chiqish, taqdim etish va muvaffaqiyatli amalga oshirish; talabalarning o‘zini o‘zi anglashiga hissa qo‘shadigan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish;

pedagogik qo‘llab-quvvatlash: o‘quv loyihalariga pedagog rahbarligi; talabalarning shaxsiy kasbiy rivojlanishiga qaratilgan individual maslahatlar; pedagogning talabalarni bosqichma-bosqich kasbiy shakllantirish bo‘yicha rahbarlikning ta‘minlanishi.

**XULOSA**

Bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxasislarini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda quyidagilar xulosa qilindi:

1) shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o‘zini-o‘zi jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash;

2) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish, ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala hamda huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini rivojlantirish;

3) milliy va umummadaniy kompetensiya – Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga hamda sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini rivojlantirish. Ushbu kompetensiyalarga amal qilish bo‘lajak oliy ma‘lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlash bilan birga, faoliyatning samarali bo‘lishini ta‘minladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909- sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

2.2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘PQ-637 sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 4. Толковъу slovar Ojegova onlayn. <https://gufo.me/dict/ozhegov>

4.R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan” 2008.

5.R. Mavlonova, N.Raxmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. T.: 2014.

6.K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi 2010.

7.R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010.

#### **Internet saytlari**

16. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)

17. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

18.[www.nadlib.uz](http://www.nadlib.uz)

19. [www.teoriva.ru](http://www.teoriva.ru)